



## MAKTABDA ASTRANOMIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

S.G' Haitova,  
H.F. Nasimov,  
A.M. Bozorova

Navoiy davlat pedagogika institute talabalari  
Ilmiy rahbar **Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7541684>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, maktabda astranomiya fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** FSMU, GoGoMo, interfaol, fikrlash, o'qitish, g'oya.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается использование интерактивных методов в обучении астрономии в школе.

**Ключевые слова:** ФСМУ, GoGoMo, интерактив, мышление, обучение, идея.

**Abstract:** This article discusses the use of interactive methods in teaching astronomy at school.

**Keywords:** FSMU, GoGoMo, interactive, thinking, teaching, idea.

Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion va ilmiy salohiyatni rivojlantirish yo'lida harakat shiddat bilan ortib borayotgan bir davrda yosh avlodning tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy, innovatsion, ilmiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, o'quv jarayonlariga yangi-yangi o'qitish metodlari, texnologiyalari va innovatsiyalarni tatbiq qilish asosiy burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi famonida ham O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsad qilingan.

Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishning muhim vositasi bo'lgan interfaol metodlar turli fanlar, turli guruhlarda qayta takrorlanishi o'qituvchilarga qulaylik yaratadi. Bu yerda 11-sinf o'quvchilari uchun astranomiya kursida "Yuldzilar" mavzusini o'qitishda "FSMU va GoGoMo" metodlaridan foydalanish usullari bayon etilgan.

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Ushbu texnologiya ishtrokchilardagi umumiy fikrlardan yakka-yolg'iz yakunlar chiqarish, taqqos, taqqoslashlar orqali axborotni o'zlashtirish, yakunlash, shu bilan birga, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat etadi. Ushbu texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda taqribiy mashq natijalarin tahlil etishda foydalanish taklif etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi: qatnashhchilarga mavzuga tegishli bo'lgan so'nggi yakun yoki g'oya taklif etiladi; har bitta ishtrokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlar tarqatiladi; qatnashuvchilarning munosabatlari individual yoki grux tartibida taqdimot etiladi. Bu yerda

- F-fikringizni bayon eting;
- S-fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- M-ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
- U-fikringizni umumlashtiring;

-O'qituvchi o'quvchilar bilan baxs mavzusini belilab olishadi;

-Yakka tartibdagi ish tugagach, o'quvchilar kichik guruxlarga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruxlarga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

-Kichik guruxlarga xar birlari yozgan qog'ozlardagifikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan xolda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;

-O'qituvchi kichik gruxlarning yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida ximoya qilishlarini so'raydi;

-Mashg'ulot o'qituvchi tamonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.[2]

FSMU tahlili ishtrokchisilarda kasblik-nazariylik bilimlarni taqribiy mashg'ulotlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va samarodor o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Fikr: "Yulduzlarning xususiyatlarini aniqlash kosmosni o'rganishda asosiy tushuncha bo'ladimi?"

Topshiriq: Ushbu savolga nisbatan o'zingizning fikringizni FSMU orqali tahlil eting.

Fikr	Ha, albadta
Sabab	Koinotning asosiy jismlari va eng ko'p jismlar aynan yulduzlardir
Misol	Yulduzlarning rangini, temperaturasini, o'zaro joylashuvi arqoli galaktikalarning tu'zilishini aniqlash mu'mkin, bu orqali esa olamning tuzilishini, uning evalyutsiyasini bilishimiz mu'mkin
Umumlashtirish	Yulduzlarning xususiyatlarini o'rganish orqali biz eng asosiy astranomik bilimlarga ege bo'lib boramiz.

1-jadval.

GoGoMo metodi (Give One, Get One, Move On)

O'quvchilardan muayyan mavzu/masalaga doir o'zining uchta g'oya/fikrini daftar/varaqa yozishi so'raladi. Keyin har bir o'quvchi boshqa bir o'quvchining yoniga borib, sherigidan bitta fikr oladi, o'zi ham unga bitta g'oya beradi. O'zaro fikr almashgach, keyingi o'quvchiga o'tadi va hokazo.

Bunda o'quvchilar orasida hamkorlikda (community) va hamjihatlikda (networking) hosil bo'ladi. Birorta o'quvchi chetda qolmaydi. Va eng muhimi o'quvchilarning "Think-Pair-Share" (O'yla-birga ishla-bo'lish) texnikasi asosida interfaol rivojlanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umum ta'lim maktablarida ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish, tahsil olayotgan yosh avlodning nazariy bilimlarini oshiribgina



qolmasdan, ularni tezroq amaliy va kasbiy jarayonlarga kirishga undaydi. Bu esa mamlakatimiz zamonaviy ta'limining yutuqlaridan biridir.[2]

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ишмухамедов Р. Абдукодиров А. Пар аев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-уқитувчилари учун амалий тавсиялар).-Т.: Истеъдод, 2008,- 180 б
2. Varoyevna, N. U. (2022). METHODS OF DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCES OF STUDENTS OF THE 8TH GRADE THROUGH TEXT TYPES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 1242-1425.
3. Varoyevna, N. U. (2022, May). THE USE OF MODERN METHODS IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCES IN THE 8TH GRADE SYUENTS. In Conference Zone (pp. 278-279).
4. Akhmadalievich, T. K. (2021). Ivan Bunin's Orientalism. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(4), 1-10.
5. Топволдиев, К. А. (2021). ВОСТОЧНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ. Составители, 66.
6. Двинятина, Т. М. (2021). СТИХОТВОРЕНИЯ ИА БУНИНА ИЗ КНИГИ «ХРАМ СОЛНЦА»(1917): КОНТЕКСТ И КОНСПЕКТ БЛИЖНЕВОСТОЧНОЙ ЛИРИКИ. In ИА БУНИН И ЕГО ВРЕМЯ: КОНТЕКСТЫ СУДЬБЫ-ИСТОРИЯ ТВОРЧЕСТВА (pp. 890-899).
7. XUSANOVA, M. R. A. (2021). THE USE OF EXPRESSIVE PHONETIC MEANS IN FARIDA AFROZS WORKS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 642-645.
8. Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1), 125-130.
9. Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ. Theoretical & Applied Science, (4), 252-254.
10. Hojaliyev, I., & Shodiyeva, A. EXTRALINGUISTIC SIGNS OF THE OFFICIAL STYLE.
11. Shodiyeva, A. (2022, November). RASMIY USLUBNING EKSTRALINGVISTIK BELGILARI. In E Conference Zone (pp. 65-68).
12. Jurayeva, E. E. (2023). ARCHITECTURE OF TASHKENT REGISTON SQUARE. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 190-203.
13. Elmuradovna, J. E. . (2021). The Architecture of Karshi Castle, The Establishment, The Past and the Present. Middle European Scientific Bulletin, 18, 247-252. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.18.878>
14. Avramenko, I. A. Candidate of Philology, Associate Professor at the Department of Foreign Languages. Research interests: history of English literature, narratology, theory of novel. E-mail: iavramenko@hse.ru. Новый филологический вестник, 105.
15. . <https://www.weteachnyc.org/resources/resource/give-one-get-one-move-go-go-mo-strategy/>